



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / SENTABR /
9-SON, II-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
II-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA MUAMMOLI KREDITLARNI BARVAQT ANIQLASHNING SUN'YI INTELLEKTGA ASOSLANGAN MENEJMENT MODELINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	14
Alovuddin Jamolov	
YASHIL TRANSPORT: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAMARQAND VILOYATIDA MAHALLIY BUDJETLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	25
Uzakova Kamola Bexzodovna	
O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	31
Xolmurodova Moxichehra Dilmurodovna	
THE IMPACT OF FOREIGN DIRECT INVESTMENT ON ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM AN ARDL BOUNDS TESTING APPROACH (2000–2024)	36
Ortikov Olloberdi Muzaffar o'g'li	
Rajabova Malika	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	44
Rustamova Dildora Jamshid qizi	
THIS STUDY EXAMINES BEIJING'S EXPERIENCE IN PROMOTING CROSS-BORDER E-COMMERCE IN TASHKENT FROM THE PERSPECTIVE OF REGIONAL COOPERATION	50
Wang Jiahao	
DORI VOSITALARIGA OID AXBOROTLARNI BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTLARIDA AKS ETTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	58
Yodgorov Xushvakt Mansurovich	
AGROSANOAT MAJMUINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA JAMLANMA DARAJA VA KANALLARARO TAKRORLANISHNI O'LCHASH METODIKASI: «YASHIL» YO'NALISHLAR MISOLIDA	63
Xudaynazarov Bekzod Akramovich	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА АКТИВОВ И СТАБИЛЬНОСТИ КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	69
Баймуратова Зина Акилбековна	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYAVIY MUHITNI YANADA RIVOJLANTIRISH VA INFLYATSIYANING SALBIY OQIBATLARINI KAMAYTIRISH YO'NALISHLARI	75
Niyozov Asad Qosimovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	80
Afenov Nursultan Nugmatillayevich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	86
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
GREEN BONDS IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, INSTITUTIONAL DEVELOPMENT AND BARRIERS TO SUSTAINABLE FINANCE	92
Umarova Zulaykho Tursunovna	
YASHIL INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI	97
Teshayev Zafarbek Zokirovich	



RAHBARLIK LAVOZIMLARIDA XOTIN-QIZLAR ULUSHI VA MAVJUD STROTEPLAR TAHLILI	103
Abduraxmonova Feruzabonu Abduraxmon qizi	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND COMPETITIVE ADVANTAGE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES.....	109
Boynazarova Iroda Mahmud qizi	
KATTA HAJMLI IQTISODIY MA'LUMOTLAR (BIG DATA) SHAROITIDA EKONOMETRIK BAHOLASH USULLARINING NAZARIY TRANSFORMATSIYASI.....	115
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
EFFECTIVE MECHANISMS FOR MANAGING ORGANIZATIONAL ECONOMIC SUSTAINABILITY IN THE PROCESS OF JOB OPTIMIZATION.....	121
Odilov Jakhongir Akram ugli	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	128
Abdullayev Ahrorjon Akmaljon o'g'li	
ZARGARLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA PERFORMANCE MARKETINGDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	134
Azizova Roxila Baxodir qizi	
IQTISODIYOT NAZARIYASI: NAZARIY ASOSLARDAN AMALIYOTGACHA BO'LGAN IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	139
Xamdamiy Amriddin Xamdamiy o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ И ПРИНЯТИЕ РЕШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ.....	145
Taravat Abdul Salam	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПОДХОД В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ	152
Ikrayeva Nodira Burxon kizi	
STOCK MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN, 2023–2026: INSTITUTIONAL REFORM, PRIVATIZATION, AND EVIDENCE FROM PRIMARY EXCHANGE MICRODATA.....	159
Alekperova Dilshodakhon	
Toshkentov Kuvonchbek	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI.....	167
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLYAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi	



TIJORAT BANKLARINING KAPITAL BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY MOLIYAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Abduraimova Fazilat Hikmatulla qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: fazilatfazilat92@gmail.com

Annotatsiya. Tijorat banklarining kapital bazasini mustahkamlashda qo'llaniladigan zamonaviy moliyaviy instrumentlar tadqiq etilgan. Bazel III standartlari doirasida kapital instrumentlarining tasnifi yoritilib, oddiy aksiyalar emissiyasi, muddatsiz va muddatli subordinatsiyalangan instrumentlar hamda shartli konvertatsiya qilinadigan vositalarning xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. 2026-yildan kuchga kirgan kapital monandligiga doir yangi nizom talablari, shuningdek, bank tizimi kapitalining hajmi va taqsimoti rasmiy manbalar asosida o'rganilgan. Kapital instrumentlarini tanlashda banklar uchun ustuvor yo'nalishlar ketma-ketligi asoslangan hamda mazkur instrumentlar bozorini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank kapitali, kapital instrumentlari, Bazel III, subordinatsiyalangan obligatsiya, shartli konvertatsiya qilinadigan instrumentlar, aksiya emissiyasi, IPO, kapital bozori.

Abstract. Modern financial instruments used to strengthen the capital base of commercial banks are examined. Capital instruments are classified in accordance with the Basel III standards, and the characteristics of ordinary share issuance, perpetual and dated subordinated instruments, and contingent convertible instruments are comparatively analyzed. The requirements of the new capital adequacy regulation effective from 2026, as well as the size and distribution of banking system capital, are examined using official sources. A sequence of priorities for banks in selecting capital instruments is substantiated, and research-based practical proposals and recommendations for developing the market for these instruments are formulated.

Keywords: bank capital, capital instruments, Basel III, subordinated bonds, contingent convertible instruments, share issuance, IPO, capital market.

Аннотация. Исследованы современные финансовые инструменты, применяемые для укрепления капитальной базы коммерческих банков. Представлена классификация инструментов капитала в соответствии со стандартами Базель III, а также проведён сравнительный анализ особенностей эмиссии обыкновенных акций, бессрочных и срочных субординированных инструментов и условно конвертируемых инструментов. На основе официальных источников изучены требования нового положения о достаточности капитала, вступившего в силу с 2026 года, а также объём и распределение капитала банковской системы. Обоснована последовательность приоритетов банков при выборе инструментов капитала и разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на развитие рынка данных инструментов.

Ключевые слова: банковский капитал, инструменты капитала, Базель III, субординированные облигации, условно конвертируемые инструменты, эмиссия акций, IPO, рынок капитала.

KIRISH

Zamonaviy bank faoliyatida kapital bazasining mustahkamligi bank o'sishining tabiiy chegarasini belgilovchi omil hisoblanadi. Kredit portfeli, investitsiya qo'yilmalari va balansdan tashqari majburiyatlarning kengayishi tavakkalchilik bilan tortilgan aktivlar hajmini oshiradi va bu, o'z navbatida, prudensial normativlarga rioya etish uchun kapitalning mutanosib ravishda o'sishini talab etadi. Kapital bazasini yetarli darajada mustahkamlash banklarga istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda tavakkalchiligi yuqori bo'lgan aktivlarni samarali boshqarish imkonini beradi.

Bu masala mamlakatimizda davlat siyosati darajasida qo'yilgan. Davlatimiz rahbari bank islohotlarining dastlabki bosqichidayoq, 2019-yil oktabrida o'tkazilgan yig'ilishda: "Endi banklar resurs jalb etish bo'yicha o'z



aravasini o'zi tortishi' kerak", — deya ta'kidlab, banklarni davlat resurslariga tayanish modelidan bozor manbalari asosida ishlashga o'tkazish vazifasini qo'ygan edi¹. Bank tizimini isloh qilish strategiyasida ham banklarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va ularni xalqaro kapital bozorlariga olib chiqish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan².

2008-yilgi jahon moliyaviy inqirozidan so'ng Bazel qo'mitasi tomonidan qabul qilingan Bazel III standartlari kapitalning nafaqat miqdoriy, balki sifat talablarini ham tubdan kuchaytirdi: zararlarni qoplash qobiliyati yuqori bo'lgan bazaviy kapital ulushiga urg'u berildi, kapitalga kiritiladigan instrumentlarga qat'iy mezonlar o'rnatildi hamda qo'shimcha buferlar joriy etildi. Natijada dunyo banklari kapital jalb etishning an'anaviy usullari bilan bir qatorda yangi avlod instrumentlaridan — muddatsiz subordinatsiyalangan obligatsiyalar va shartli konvertatsiya qilinadigan vositalardan keng foydalana boshladi. O'zbekistonda banklar aksiyadorlar badallari va foydani kapitallashtirish bilan bir qatorda zamonaviy bozor instrumentlaridan foydalanishni bosqichma-bosqich kengaytirib borish imkoniyatiga ega.

Maqolaning maqsadi tijorat banklari kapital bazasini mustahkamlashning zamonaviy moliyaviy instrumentlarini tizimlashtirish, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilish imkoniyatlari va xususiyatlarini yangilangan huquqiy baza hamda rasmiy statistik ma'lumotlar asosida aniqlash, shuningdek, ushbu instrumentlardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ moliya nazariyasida kapital tarkibi muammosi F. Modilyani va M. Millerning mashhur teoremasidan boshlab tadqiq etib kelinadi³. Mazkur teorema ko'ra, mukammal bozor sharoitida kompaniya qiymati uning moliyalashtirish tarkibiga bog'liq emas. Biroq keyingi tadqiqotlarda banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi ko'rsatildi: depozitlarni sug'urtalash tizimi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari va tartibga solish mexanizmlari bank kapitali tarkibini tanlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

S. Mayers va N. Majlufning "iyeraxik tartib" nazariyasiga muvofiq, axborot assimetriyasi sharoitida kompaniyalar moliyalashtirish manbalarini ma'lum ketma-ketlikda — avval ichki manbalar, so'ngra qarz instrumentlari va eng oxirida aksiyalar emissiyasi tartibida tanlaydi⁴. Ushbu yondashuv bank kapitalini rejalashtirishda ham o'z tasdig'ini topgan bo'lib, banklar aksiyalarning qo'shimcha emissiyasiga, odatda, boshqa moliyalashtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanilgandan so'ng murojaat qiladi.

A. Admati va M. Xellvig banklarning kapital monandligi bo'yicha ilmiy munozaralarga katta hissa qo'shib, yuqori kapital talablari bank xizmatlari narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan holda tizimli barqarorlikni mustahkamlashini asoslab bergan⁵. Ularning fikricha, bank kapitalining qiymatini baholashda soliq imtiyozlari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash omillarining ta'sirini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega. A. Berger, R. Herring va G. Szego esa bozor kapitali va regulativ kapital talablari o'rtasidagi nisbatni tahlil qilib, tartibga solish talablarining banklar faoliyatiga ta'sir mexanizmlarini yoritib bergan⁶.

Rossiyalik olimlar O. Lavrushin va G. Beloglazovning ilmiy ishlarida bank kapitalini ko'paytirish instrumentlari, jumladan, subordinatsiyalangan kreditlar va obligatsiyalarning huquqiy hamda iqtisodiy jihatlarini yoritilgan⁷. O'zbekistonlik olimlardan Sh. Abdullayeva bank xususiy kapitalining tarkibi va uni shakllantirish tartibini tizimli bayon etgan⁸, N. Karimov va J. Razzaqovlarning tadqiqotlarida esa banklarning yirik loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtiroki ularning resurs va kapital salohiyati bilan bog'liqligi ko'rsatilgan⁹. Shu bilan birga, O'zbekiston bank amaliyotida Bazel III mezonlariga muvofiq kapital instrumentlari bozorini yanada rivojlantirish masalalarini, ayniqsa, 2026-yildan kuchga kirgan yangi tartibga solish sharoitida kompleks tadqiq etish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu esa mazkur maqola mavzusining ilmiy yangiligini belgilaydi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 25-oktabrda bank tizimini isloh qilish va banklarning investitsiyaviy faolligini oshirishga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan // <https://xabar.uz/uz/iqtisodiyot/shavkat-mirziyoyev-endi-banklar>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4811025>

3 Modigliani F., Miller M. The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment // American Economic Review. — 1958. — Vol. 48, No. 3. — P. 261–297.

4 Myers S., Majluf N. Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have // Journal of Financial Economics. — 1984. — Vol. 13. — P. 187–221.

5 Admati A., Hellwig M. The Bankers' New Clothes: What's Wrong with Banking and What to Do about It. — Princeton: Princeton University Press, 2013.

6 Berger A.N., Herring R.J., Szego G.P. The role of capital in financial institutions // Journal of Banking & Finance. — 1995. — Vol. 19. — P. 393–430.

7 Lavrushin O.I. (red.) Bankovskoye delo: uchebnik. — M.: KNORUS, 2016. — 800 s.; Beloglazova G.N., Krolyevskaya L.P. (red.) Bankovskoye delo: uchebnik. — SPb.: Piter, 2008.

8 Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. — T.: "Iqtisod-Moliya", 2017.

9 Karimov N.G., Razzaqov J.X. Investitsion loyihalarni sindikatli kreditlar hisobiga moliyalashtirishning tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2019. // <https://iqtisodiyot.tsue.uz>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, tasniflash va guruhlash, qiyosiy tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Kapital instrumentlari Bazel III standartlarida belgilangan mezonlar asosida tasniflandi, har bir instrument afzalliklari, xususiyatlari va qo'llanilish shartlari bo'yicha qiyosiy baholandi. Axborot manbalari sifatida Bazel qo'mitasining hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari — jumladan, 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirgan banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi yangi nizom — hamda Markaziy bank va tijorat banklarining rasmiy statistik ma'lumotlari xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Bazel III standartlariga muvofiq, bank regulyativ kapitali sifat jihatidan uch toifaga ajratiladi: bazaviy birinchi darajali kapital, qo'shimcha birinchi darajali kapital hamda ikkinchi darajali kapital¹⁰. Har bir toifa uchun instrumentlarning zararlarni qoplash qobiliyatiga qarab qat'iy mezonlar belgilangan (1-jadval).

1-jadval

Bazel III standartlari bo'yicha bank kapitali toifalari va tegishli instrumentlar¹¹

Kapital toifasi	Asosiy instrumentlar	Tavsifi
Bazaviy birinchi darajali kapital (CET1)	Oddiy aksiyalar, emissiya daromadi, taqsimlanmagan foyda, zaxira fondlari	Zararlarni qoplash qobiliyati eng yuqori; muddatsiz; to'lovlar bank ixtiyorida
Qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1)	Muddatsiz subordinatsiyalangan obligatsiyalar va shartli konvertatsiya qilinadigan instrumentlar	Muddatsiz; kupon to'lovini bekor qilish mumkin; belgilangan holatda hisobdan chiqariladi yoki aksiyaga aylantiriladi
Ikkinchi darajali kapital (Tier 2)	Muddatli subordinatsiyalangan qarz va obligatsiyalar, umumiy zaxiralarning bir qismi	Kamida besh yil muddatli; so'nggi besh yilda kapitalga kiritiladigan qismi bosqichma-bosqich kamayadi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kapital sifatining yadrosi oddiy aksiyalar va taqsimlanmagan foydadan iborat bazaviy kapital hisoblanadi. Qolgan instrumentlar esa kapital tarkibini to'ldiruvchi va uning umumiy hajmini oshiruvchi vositalar bo'lib xizmat qiladi. Bazel III bo'yicha kapitalning minimal miqdoriy tarkibi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Bazel III standartlari bo'yicha bank kapitalining minimal tarkibi, risk bilan tortilgan aktivlarga nisbatan foizda¹²

10 Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems. – Basel: BIS, 2010 (rev. 2011).

11 Manba: Bazel qo'mitasi hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

12 Manba: Bazel qo'mitasi hujjatlari asosida muallif tomonidan Excel dasturida tuzildi.



Rasmdan ko'rinib turibdiki, kapital konservatsiya buferini hisobga olganda, jami minimal talab 10,5 foizni tashkil etadi, shundan 7 foizlik qismi, ya'ni bazaviy kapital va bufer, eng yuqori sifatli instrumentlar hisobiga shakllantirilishi shart. Milliy tartibga solish tizimida esa yanada yuqori talablar belgilangan: regulativ kapital monandligi bo'yicha talab 13 foiz etib belgilangan, 2026-yildan kuchga kirgan yangi nizomda esa I darajali kapital regulativ kapitalning kamida 50 foizini tashkil etishi, II darajali kapitalning I darajali kapitaldan oshgan qismi esa hisobga olinmasligi qayd etilgan¹³. Demak, kapital jalb etish strategiyasida oddiy aksiyalar va taqsimlanmagan foyda ustuvor o'rin tutishi, boshqa instrumentlar esa ularni to'ldirishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, banklarning kapital jalb etish instrumentlarini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Birinchi instrument — aksiyalarning ochiq emissiyasi. Dastlabki ochiq taklif bank uchun eng sifatli kapital manbai bo'lish bilan birga, uning bozor qiymatini shakllantiradi, jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi va keyingi emissiyalar uchun yo'l ochadi. Bu yo'nalishdagi strategik vazifa ham aniq belgilangan: davlat rahbari tomonidan Milliy bankni IPO orqali ochiq bozorga chiqarish vazifasi qo'yilgan¹⁴. Ayni paytda ochiq taklifga chiqish bankdan jiddiy tayyorgarlikni talab etadi: kamida uch yillik xalqaro standartlarga muvofiq auditlangan hisobotlar, korporativ boshqaruvning xalqaro talablarga muvofiqligi, aniq rivojlanish strategiyasi va dividend siyosati zarur. Bu borada Markaziy bankning banklarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga to'liq o'tkazishni 2027-yil oxirigacha yakunlash rejasi¹⁵ IPO uchun zamin yaratuvchi muhim qadam hisoblanadi.

Ikkinchi instrument — muddatli subordinatsiyalangan obligatsiyalar. Ular depozitlar va oddiy qarz majburiyatlaridan keyin, aksiyadorlik kapitalidan oldin qanoatlantiriladigan talablarni ifodalaydi va ikkinchi darajali kapital tarkibiga kiritiladi. Ushbu instrumentning asosiy afzalligi mavjud aksiyadorlar ulushini suyultirmasdan kapital ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini berishidir. Muddat tugashiga so'nggi besh yil qolganda instrumentning kapitalga kiritiladigan qismi bosqichma-bosqich kamayib borishi banklarda subordinatsiyalangan qarzlarni qayta moliyalashtirish jarayonini oldindan va samarali rejalashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, subordinatsiyalangan instrumentlar bo'yicha foiz stavkalarining o'ziga xos xususiyatlari banklarda foiz xarajatlarini samarali boshqarish va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Uchinchi instrument — muddatsiz subordinatsiyalangan va shartli konvertatsiya qilinadigan instrumentlar. Xalqaro amaliyotda keng tarqalgan ushbu vositalar bank kapitali belgilangan chegaradan pasayganda avtomatik ravishda hisobdan chiqariladi yoki oddiy aksiyalarga aylantiriladi, ya'ni bank faoliyati davom etayotgan sharoitda zararlarni qoplashda ishtirok etadi. E'tiborlisi, milliy huquqiy bazada bu yo'nalishda muhim o'zgarish yuz berdi: yangilangan tartibga solish hujjatlarida majburiyat sifatida tasniflangan kapital vositalarining bank I darajali asosiy kapitali monandlik koeffitsiyentini belgilangan talabdan kamida bir foiz band yuqori darajaga yetkazish maqsadida oddiy aksiyalarga konvertatsiya qilinishi yoki hisobdan chiqarilishi sharti bevosita nazarda tutilgan. Fikrimizcha, navbatdagi vazifa ushbu huquqiy imkoniyatni amaliyotga tatbiq etish, ya'ni dastlabki emissiyalarni tayyorlash, investorlar bazasini shakllantirish va narxlash amaliyotini rivojlantirishdan iborat.

To'rtinchi instrument — strategik investor kapitali. 2023-yilda Ipoteka-bank ustav kapitalidagi davlat ulushining Vengriyaning OTP Group guruhiga sotilishi ushbu mexanizmning O'zbekiston sharoitida amaliy jihatdan qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatdi. Strategik investorni jalb etish bank uchun nafaqat kapital, balki xalqaro tajriba, texnologiyalar va korporativ boshqaruv madaniyatining kirib kelishini ham anglatadi. Transformatsiya bosqichidagi davlat banklarida xalqaro moliya institutlarining aksiyadorlik kapitalidagi dastlabki ishtiroki keyinchalik strategik investorlarni jalb etishni osonlashtiruvchi ishonch omili vazifasini o'tashi mumkin.


Instrumentlarni tanlashda bank tizimi kapitalining joriy hajmi va taqsimotini ham hisobga olish zarur. 2025-yil 1-oktabr holatiga bank tizimining umumiy kapitali 130,4 trln so'mni tashkil etdi; kapital hajmi bo'yicha yetakchi beshta bank — O'zmilliybank (19,4 trln so'm), Agrobank (13,7 trln so'm), O'zsanoatqurilishbank (11,4 trln so'm), Xalq banki (10,2 trln so'm) va Asakabank (8,1 trln so'm) — birgalikda tizim kapitalining qariyb yarmini o'zida jamlagan¹⁶ (2-rasm).

13 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi 21/6-son qarori bilan tasdiqlangan "Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom" (ro'yxat raqami 3697, 28.10.2025-y., 2026-yil 1-yanvardan kuchda); shuningdek, Markaziy bank boshqaruvining 2025-yil 1-apreldagi 7/6-son qarori (ro'yxat raqami 2693-13, 21.04.2025-y.) // <https://lex.uz>

14 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2023-yil 20-noyabrda o'tkazilgan bank tizimida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish materiallari // <https://president.uz>

15 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisi T.Ishmetovning xalqaro investitsiya hamjamiyatiga murojaatidagi ma'lumotlar (2025-yil oktabr) // <https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/23/bank-sector-uzbekistan/>

16 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining rasmiy ma'lumotlari asosida (2025-yil 1-oktabr holatiga) // www.cbu.uz; <https://nbu.uz>



2-rasm. Kapital hajmi bo'yicha yetakchi tijorat banklari, 2025-yil 1-oktabr holatiga, trln so'mda¹⁷

Rasmdan ko'rinib turibdiki, davlat ulushidagi yirik banklar bank tizimi kapitalining salmoqli qismini shakllantirib, kapital bazasining barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Bu holat ikki muhim xulosaga olib keladi. Bir tomondan, aynan shu banklarning kapital instrumentlari bozoriga chiqishi bozor hajmini shakllantiradi va boshqa ishtirokchilar uchun muhim mo'ljal yaratadi. Boshqa tomondan, o'rta va kichik xususiy banklar uchun subordinatsiyalangan hamda gibrin instrumentlar aksiyadorlik kapitalini suyultirmasdan raqobat imkoniyatlarini kengaytiruvchi amaliy vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kapitalni rejalashtirishda banklar leveraj cheklovini ham hisobga olishi zarur. Leveraj koeffitsiyenti tavakkalchilik vaznlaridan qat'i nazar hisoblanadi va quyidagi ko'rinishga ega:

$$LK = \frac{BDK}{JA+BTM} \times 100\% \quad (1)$$

bunda: LK — leveraj koeffitsiyenti; BDK — birinchi darajali kapital; JA — jami balans aktivlari; BTM — balansdan tashqari majburiyatlarning kredit ekvivalenti. Milliy tartibga solish amaliyotida leveraj bo'yicha talab xalqaro minimal darajadan ikki barobar yuqori — 6 foiz etib belgilangani banklardan aktivlarning har qanday kengayishida birinchi darajali kapitalni mutanosib ravishda oshirib borishni taqozo etadi.

Tahlil natijalarini umumlashtirgan holda, kapital instrumentlarini tanlashda O'zbekiston tijorat banklari uchun quyidagi ustuvorlik ketma-ketligini asoslash mumkin (2-jadval).

2-jadval
Tijorat banklari uchun kapital jalb etish instrumentlarining qiyosiy tavsifi¹⁸

Instrument	Kapital toifasi	Afzalliklari	Cheklovlari
Taqsimlanmagan foyda	CET1	Arzon, barqaror, aksiyadorlar ulushini suyultirmaydi	Foyda miqdori va dividend siyosatiga bog'liq
Yopiq joylashtirish (strategik investor, XMI)	CET1	Kapital, tajriba va texnologiya birgalikda kirib keladi	Tayyorgarlik jarayoni muayyan vaqtni talab qiladi, shaffoflik talablari yuqori
Ochiq emissiya (IPO/SPO)	CET1	Yirik hajmdagi kapitalni jalb etish, bozor bahosini shakllantirish va obro'ni oshirish imkonini beradi	Bozor likvidligini rivojlantirish zarur, aksiyadorlar ulushi suyulishi mumkin

¹⁷ Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan Excel dasturida tuzildi.

¹⁸ Manba: tahlil natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Muddatsiz subordinatsiyalangan/shartli konvertatsiya instrumentlari	AT1	Aksiyadorlar ulushini suyultirmaydi, muddatsiz	Bozor amaliyotining izchil shakllanib borishi mazkur instrumentlardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda
Muddatli subordinatsiyalangan obligatsiya	Tier 2	Nisbatan tez jalb etiladi	Amortizatsiya va qayta moliyalashtirishni rejalashtirish zarur

Iyerarxik tartib nazariyasiga muvofiq, barqaror rentabellikka ega banklar uchun kapital o'sishining tayanch manbai taqsimlanmagan foyda bo'lib qolishi, subordinatsiyalangan instrumentlar oraliq to'ldiruvchi vosita sifatida, aksiyalar emissiyasi esa yirik strategik rivojlanish bosqichlarida qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Bunda har bir bank o'z biznes modeli, o'sish sur'atlari va tavakkalchilik profilidan kelib chiqib, kamida uch yillik kapital rejasini ishlab chiqishi hamda uni stress-test natijalari bilan muvofiqlashtirishi lozim.

Alohida ta'kidlash joizki, kapital instrumentlari bozorining rivojlanishi nafaqat banklarning sa'y-harakatlariga, balki moliya bozori infratuzilmasining umumiy rivojlanishiga ham bog'liq. Institutsional investorlar — pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlarining uzoq muddatli mablag'lari subordinatsiyalangan va gibril instrumentlarga talabning muhim manbai hisoblanadi. Shuningdek, kredit reytinglari tizimining rivojlanishi, bozor infratuzilmasining takomillashuvi va axborot shaffofligining oshishi ushbu bozorning barqaror rivojlanishi uchun zarur shartlardan hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot tijorat banklarining kapital bazasini mustahkamlashda zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini mahalliy amaliyotda yanada kengaytirish uchun salohiyat mavjudligini ko'rsatdi. Ayni paytda 2026-yildan kuchga kirgan yangi tartibga solish tizimi shartli konvertatsiya qilinadigan instrumentlar uchun huquqiy asos yaratdi va ushbu yo'nalishda bozor mexanizmlarini amaliy jihatdan shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Tahlillar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar shakllantirildi:

1. Kapital monandligi to'g'risidagi yangi nizomda nazarda tutilgan shartli konvertatsiya mexanizmi asosida dastlabki namunaviy AT1 emissiyalarini yirik banklar misolida tayyorlash, ular bo'yicha prospekt, narxlash va investorlarga axborot berish amaliyotini shakllantirish maqsadga muvofiq.

2. Banklarning subordinatsiyalangan obligatsiyalarini fond birjasining alohida segmentida muomalaga kiritish, ular bo'yicha bozor tuzuvchilar institutini shakllantirish hamda institutsional investorlarning ushbu instrumentlarga investitsiya kiritish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

3. Davlat ulushidagi banklar transformatsiyasida ikki bosqichli modelni qo'llash tavsiya etiladi: dastlab xalqaro moliya institutlarini ozchilik aksiyador sifatida jalb etish, shu asosda korporativ boshqaruv va hisobot sifatini oshirish, keyingi bosqichda esa strategik investorlarni jalb etish yoki ochiq bozorga chiqish.

4. Milliy bank IPOsiga tayyorgarlik doirasida xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotga o'tishni 2027-yilgacha yakunlash rejasini izchil amalga oshirish hamda ochiq taklifga chiqayotgan banklar uchun mustaqil kuzatuv kengashi a'zolari va investorlar bilan aloqalar xizmati bo'yicha yagona milliy talablar to'plamini joriy etish lozim.

5. Foydani kapitalga yo'naltirishni rag'batlantirish maqsadida reinvestitsiya qilinadigan foyda uchun soliq mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish hamda davlat ulushidagi banklarda dividend siyosatini kapital rejasini bilan uzviy bog'lash maqsadga muvofiq.

6. Har bir bankda kapitalni rejalashtirishni ichki kapital monandligini baholash jarayoni doirasida institutsionallashtirish, kapital rejasini yillik stress-testlar natijalari asosida yangilab borish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, mazkur takliflarning amalga oshirilishi tijorat banklariga kapital jalb etish kanallarini diversifikatsiya qilish, kapital bazasi sifatini xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish hamda pirovardida iqtisodiyotni uzoq muddatli moliyalashtirish salohiyatini kengaytirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-4811025>



2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi 21/6-son qarori bilan tasdiqlangan "Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom" (ro'yxat raqami 3697, 2025-yil 28-oktabr) [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz>
3. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems. — Basel: Bank for International Settlements, 2010. — Revised June 2011.
4. Modigliani F., Miller M. H. The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment // American Economic Review. — 1958. — Vol. 48, No. 3. — P. 261–297.
5. Myers S. C., Majluf N. S. Corporate Financing and Investment Decisions When Firms Have Information That Investors Do Not Have // Journal of Financial Economics. — 1984. — Vol. 13. — P. 187–221.
6. Admati A. R., Hellwig M. The Bankers' New Clothes: What's Wrong with Banking and What to Do about It. — Princeton: Princeton University Press, 2013.
7. Berger A. N., Herring R. J., Szegö G. P. The Role of Capital in Financial Institutions // Journal of Banking & Finance. — 1995. — Vol. 19. — P. 393–430.
8. Лаврушин О. И. Банковское дело: учебник / под ред. О. И. Лаврушина. — М.: КНОРУС, 2016. — 800 с.
9. Банковское дело: учебник / под ред. Г. Н. Белоглазовой, Л. П. Кроливецкой. — СПб.: Питер, 2008.
10. Abdullayeva Sh. Z. Bank ishi: darslik. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017.
11. Karimov N. G., Razzaqov J. X. Investitsion loyihalarni sindikatli kreditlar hisobiga moliyalashtirishning tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2019. — [Elektron resurs]. — URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz>
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti [Elektron resurs]. — URL: <https://www.cbu.uz>
13. "Toshkent" Respublika fond birjasining rasmiy veb-sayti [Elektron resurs]. — URL: <https://www.uzse.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>